

**ONALAR O'LIMIDA BUYRAK USTI BEZI
PATOMORFOLOGIYaSINING XOS JIXATLARI**

Shokirov Xumoyunmirzo Umidjon o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti

Muammoni dolzarbligi. Onalar o'limi dolzarb muammolar biri bo'lib, butun dunyoda axolini barcha ijtimoiy iqtisodiy jixatlarini belgilovchi muxim mezon bo'lib, YuNISEF 2020 ma'lumotlari bo'yicha, dunyoda xomilador ayollar o'limi 2020 yilda 287000 mingtani tashkil etib, shulardan 72,3% ni rivojlanayotgan davlatlar xissasiga to'g'ri keladi. AQSh va Evropa davlatlarida onalar o'limi o'rtacha, 100mingta xomilador ayollarga 24tani tashkil etsa, Rossiya Federasiyasida bu ko'rsatkich 100 mingtaga 36,5 tani, Azarbaydjan, Albaniya, Armaniston, Bosniya va Gerstegovina, Gruziya, Turkiya, Qirg'izistonda bu ko'rsatkich 100 mingtaga 61,3 tani tashkil etsa, Tojikiston va Turkmanistonda bu ko'rsatkich yuritilmaganligi, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2022 yilda 100 mingtaga 179tani tashkil etganligi aniqlangan. Bu ko'rsatichni rivojlanayotgan, MDX davlatlarida yuqori ko'rsatichlar bilan xarakterlanadi. Aynan, onalar o'limida turli etiologiyali tanotogenezni muxim jixatlari, bu xomiladorlikka aloqador va aloqador bo'lmasligi kasalliklar bo'lib, aksariyat, reproduktiv ayollarda ekstragenital cassalliklarni xomiladorlik paytida qo'zishi yoki skrining qilish imkoniyatini bo'lmasligi bilan xarakterlanib, xomiladorlikni 2 va 3-oyida to'satdan endokrin buzilishlar jumladan buyrak usti bezining patologiyalari muxim xisoblanadi.

E'tiborli jixatlaridan biri, bu ijtimoiy omillardan biri bo'lgan stressor omillar xomiladorlarda kortiko-gipotalamo-gipofizar va simpatoadrenal tizimni o'zaro integral bog'liqligini izdan chiqarishi oqibatida murakkab patogenetik mexanizmni yuzaga kelishi va juda mavxum bo'lgan simpatoadrenal tizimdagи buzilishilar oqibatida, xomilador ayollarda buyrak usti bezining etishmovchiligi yoki giperfunkstional xolatini yuzaga kelishi preeklampsiya va eklampsiya rivojlanishiga olib kelishi onalar o'limini yuqori ko'rsatichlar bilan namoyon qiladi. Bu esa, mutloq dolzarb va muxim bo'lgan muammoni ayni paytda to'g'ri tanlanganligi va zaruratini taqozo etadi.

Natija va muxokama. Buyrak usti bezida xomiladorlikdagi letal oqibatlarida asosiy morfologik substratlardan biri bu po'stloq va mag'iz soxalarida o'choqli qon quyilishlar bo'lib, asosan, po'stloq qavatning tutamli soxalari oralig'ida diapedez qon quyilish, sekretor bez xujayralari oralig'ida turli ko'rinishdagi sinusoid bo'shliqlarni shakllanishi, spangiostitlar stitoplazmasida ko'p miqdorda lipidli kiritmalarni bo'lishi, mayda kapillyarlarda to'laqonlik va sladj fenomenini bo'lishi, mayda kalibrli tomirlar o'tkazuvchanligi oshishi natijasida diapedez qon quyilishi va nekrobioz o'choqlarining bo'lishi bilan xarakterlandi. Buyrak usti bezining mag'iz qavatida asosan, markaziy

venalar atrofida to’laqonlik tarqoq diapedez qon quyilish och va to’q xujayralar oralig’ida gemolizga uchragan va siderofaglarning ko’p miqdorda to’planishi, oraliq shishlar va mag’iz qavat gistoarxitektonikasi buzilishi va destruktiv o’zgarishlarga yirik gemorragik nekroz o’choqlarini qo’shilishi aniqlandi. Bu o’zgarishlar asosan, xomiladorlikda onalar o’limini yuzaga kelishini tanogenez mexanizmini bevosita bitta pog’onasi bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa: turli etiologiyali onalar o’limida buyrak usti bezi uchun xos bo’lgan nospestifik javob reakstiyasi po’stloq qavatining tutamli soxasida diapedez qon quyilishi, spangiostitlarda multifokal nekroz, xujayra stitoplazmasida lipidli kiritmalar ni ko’payishi va nekrobiozga uchrashi, mag’iz qavattida massiv gemorragik o’choqlar va nekrozga uchragan gistoarxitektonikasi keskin o’zgargan o’choqlarni shakllanishi va buyrak usti bezining o’tkir etishmovchiligi bilan bog’liq morfologik o’zgarishlarning bo’lishi bilan xarakterlandi.